

**“TASDIQLAYMAN”**  
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi  
TATU Farg‘ona filiali direktori

\_\_\_\_\_ F. Muxtarov  
2024-yil 30-sentabr

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari  
universiteti Farg‘ona filiali Kengashining 2-yig‘ilishi  
**b a y o n n o m a s i**

2024-yil 30-sentabr

Farg‘ona shahri

Qatnashdilar – Kengash a‘zolaridan 26 nafari, taklif qilinganlar.  
Yig‘ilish raisi – F. Muxtarov.

**K u n t a r t i b i d a :**

I. Filial direktorining ma‘ruzasi.  
Axborotchi: F.Muxtarov.

**Asosiy masalalar:**

II. Ijro intizomi haqida  
Axborotchi: A. Abdulxamidov.

III. “1-oktabr – Ustoz va murabbiylar kuni”ni nishonlanishi to‘g‘risida.  
Axborotchi: B. Tolipov.

IV. 2024/2025-o‘quv yilida iqtidorli talabalar bilan ishlashni tashkil qilish  
to‘g‘risida.  
Axborotchi: B. Polvonov.

V. Filialda jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og‘zaki murojaatlari bilan  
ishlash to‘g‘risida.  
Axborotchi: A. Abdulxamidov.

VI. Turli masalalar.

1. Ilmiy unvon olish uchun Oliy attestatsiya komissiyasiga attestatsiya ishini tavsiya  
etish to‘g‘risida.  
Axborotchi: N. Qurbonov.

2. Ilmiy-uslubiy ishlarni nashrga tavsiya etish haqida  
Axborotchi: Sh. Umarov, S. Zokirov.

3. Dissertatsiya mavzularini tasdiqlash va ilmiy rahbarlarni tayinlash to‘g‘risida.  
Axborotchi: S. Zokirov.

4. Dotsent (vazifasini vaqtincha bajaruvchi) va professor (vazifasini vaqtincha bajaruvchi) lavozimlariga tavsiya qilish haqida.

Axborotchilar: B.Polvonov, kafedra mudirlari.

5. Vazirlik, rektor, direktor, o‘rinbosarlar va fakultet dekanlari tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishni qasddan rad etish va unga bo‘ysunmaslik yuzasidan qonuniy chora ko‘rish haqida.

Axborotchilar: direktor o‘rinbosarlari, yurist-konsult.

**Kun tartibining birinchi masalasida** filial direktori F.Muxtarovning ma‘ruzasi eshitildi.

**Assalomu alaykum, hurmatli Kengash a‘zolari, aziz ustozlar, professor-o‘qituvchilar!**

So‘zimni avvalida barchangizga o‘zining cheksiz hurmat va ehtiromimni izhor etib, 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etishga ruxsat bergaysiz.

Aziz ustozlar, siz bizlar uchun ibrat namunasi, yuksak insoniy fazilatlar timsolisiz! Ushbu qutlug‘ ayyomni mamlakatimizda keng nishonlar ekanmiz, birinchi navbatda qadrdon maktabimiz, ezgulikdan saboq bergan mehribon muallimlarimiz siymosi ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Ushbu ulug‘ kunda sizlar kabi aziz va mo‘tabar ustozlar sha‘niga eng go‘zal so‘zlar, ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Aziz va muhtaram ustozlar! Sizlarni 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, sharaflilik va mas‘uliyatli faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar, xonadoningizga fayzu baraka tilayman.

Hurmatli, jamaodoshlar! Sentabr oyi davomida ana shunday jamoamiz orasida o‘zining tashabbuskorligi, samarali va halol mehnati, fidoiyligi, jonkuyarligi bilan ajralib turgan hamda o‘z vazifasiga mas‘uliyat bilan yondashib, shukronalik kayfiyati bilan ishlayotgan bir qancha professor-o‘qituvchilar va ishchi-xodimlarni taqdirlab olsak.

Eslatib o‘tmoqchiman, mazkur o‘quv yilidan boshlab, ma‘naviyat yo‘nalishidagi filial hodimlariga beriladigan har bir **tashakkurnomaga bazaviy hisoblash miqdorining bir barobarida, faxriy yorliqqa esa mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori bir barobarida** moddiy rag‘batlantirish belgilangan.

Filialimiz hayotida faollik va tashabbuskorligi bilan o‘rnak bo‘layotgan, o‘zining mashaqqatli mehnati bilan oliygoh rivojiga munosib hissa qo‘shayotgan, shuningdek, filialda ma‘naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlashtirish borasida ibratli faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar hamda ishchi-hodimlarni munosib e‘tirof etish maqsadida oltin va kumush nishonlar ta‘sis etilgan. Ushbu filial nishonlarining navbatdagi sovrindorlari bilan tanishing!

Kumush nishon bilan filialning Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi Eshimova Nasibaxon Rahmatullaevna taqdirlanadi.

Oltin nishon bilan Xorijiy tillar kafedrasini mudiri Obidova Gulmira Kuzibaevna taqdirlanadi.

Shu o'rinda bir narsani aytib o'tib ketmoqchiman. Moliya-reja bo'limi xorijiy talabalarning to'lov-kontraktlarini 2,5 000 (ikki yarim ming) AQSh dollaridan 1 000 (bir ming) AQSh dollariga tushirilishida jonbozlik ko'rsatganliklari uchun ularga alohida rahmat aytmoqchiman. Bu uchun ularning oylik maoshlariga 400% ustama belgilanishini ko'zda tutilgan edi, lekin bo'lim xodimlari buni rad etishdi. Buni filialimiz ravnaqi uchun bajarganliklarini aytdilar.

Hurmatli jamoa! Barchangizga ma'lumki, jonjon oliygohimiz milliy rivojlanishning yangi davriga dadil qadam qo'ymoqda. Filialimizning barcha jabhalarida ulkan o'zgarishlar yuz bermoqda. TATU Farg'ona filiali deb atalmish ushbu katta va inoq oilaning har bir a'zosi erkin va birdam bo'lib ishlashi va talabalarimizga yuqori saviyali bilim berish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish yo'lida tinimsiz izlanmoqdamiz.

Bugungi yig'ilishimizda ham ushbu yo'lida amalga oshirilgan ishlar borasida quyidagilarni e'tiboringizga havola qilmoqchiman.

**Moddiy-texnik bazani mustahkamlash bo'yicha.** Oliyogohimizni nazorat qilish, uning xavfsizligini hamda tinch va osoyishtaligini ta'minlashdek muhim vazifani bajaruvchi filialning qo'riqlash xizmati xodimlariga jangovar shaylikni ta'minlash maqsadida maxsus kiyimlar bilan ta'minlandi.

**Ilmiy ishlar bo'yicha.** Mazkur oyda filialimizda "Yosh olimlar zamonaviy ixtirolari va innovatsion tadqiqotlari natijalarining amaliyotga joriy etilishi" mavzusida loyihalar taqdimoti bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirda ishtirok etgan Innovatsion rivojlantirish agentligining Startap ekotizimini rivojlantirish bo'limi, Tijoratlashtirish boshqarmasi hamda hududlar bilan ishlash mutaxassislari oliygohimizning yosh olimlari hamda ixtirochilari tomonidan tayyorlangan loyihalar bilan tanishdilar.

Joriy yilning 14-sentabr kuni Raqamli texnologiyalar markazida "**Startap Gerij**" ("Startup Garage") filialining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Ushbu marosimda filialimiz jamoasi ham muvaffaqiyatli startap loyihalari bilan ishtirok etdilar. Tadbir davomida soha mutaxassislari o'rtasida o'zaro fikr almashildi.

Yana bir xush xabar. Filialimiz bosh hisobchisi Nurmatov Mirzaakbar Mirzaalievich falsafa doktori (Phd) ning muammoli seminarida 100 % lik ovoz bilan himoyaga tavsiya etildi.

**Xalqaro aloqalar bo'yicha.** Prezidentimiz tashabbusi hamda hukumat rahbarlarining maqsadli dasturlari asosida, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi xalq xo'jaligi va davlat xizmati Akademiyasida "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va uning doirasida kelgusi yillar davomida amalga oshiriladigan muhim islohotlar to'g'risida xalqaro seminar tashkil etildi. Bunda filialimizning Ichki nazorat bo'limi bosh mutaxassisi Mavjuda opa Xursanova faol ishtirok etib, ushbu akademiya direktori tomonidan maxsus sertifikat bilan taqdirlandi.

TATU Farg'ona filiali delegatsiyasi "ArchEnergo" klasteri bilan hamkorlik to'g'risidagi bitim talablarini amalga oshirish, xorijiy ilmiy rahbarlarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish, ilmiy-tadqiqot institutlarini yaratish, shuningdek,

Vengriya davlatining bir qator oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish maqsadida Vengriya Xalq Respublikasiga tashrif buyurdi.

Mazkur tashrif davomida:

1. "ArchEnerg" klasteri bilan alternativ energiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalarni tijoratlashtirish, xalqaro stipendiya loyihalarini tashkil etish va alternativ energiya tadqiqotlari va rivojlanish bo'yicha hamkorlik masalalari;

2. Moddiy texnik bazani takomillashtirish bo'yicha loyihalar ishlab chiqish, sun'iy intellekt laboratoriyalarini tashkil etish, xorijiy professor-o'qituvchilarni taklif qilish masalalari;

3. Obuda universitetining ilmiy laboratoriyalari hududiy bo'linmasini TATU Farg'ona filialida tashkil etish;

4. Eotvos Lorand universiteti bilan 3+1 bakalavr va 1+1 magistratura qo'shma ta'lim dasturini yo'lga qo'yish;

5. Budapesht texnika va iqtisodiyot universiteti bilan magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarini yozishda hamkorlik hamda rahbarlik qilish va ilmiy maslahat berish uchun professor-o'qituvchilarni jalb qilgan holda qo'shma ilmiy va ilmiy-texnikaviy tadqiqotlar olib borish va boshqa ko'plab masalalar ko'rib chiqilib, bu borada qator kelishuvlarga erishildi.

Joriy yilning 20-sentabrida filialimizga Xitoy xalq respublikasining Shandong texnologiyalar universiteti delegatsiyasi tashrif buyurdi.

Tashrif mobaynida o'zaro xalqaro aloqalar va professor-o'qituvchilarni ilmiy stajirovkalarga yuborish, talabalar almashinuvi, xalqaro loyihalarda ishtirok etish masalalari yuzasidan fikr almashildi. Uchrashuv yakunida qo'shma ta'lim yo'nalishlarini ochish bo'yicha samarali kelishuvlarga erishildi.

Joriy yilning 24-sentabr kuni O'zbekiston va Italiya o'rtasida oliy ta'lim sohasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan birinchi O'zbekiston-Italiya ta'lim forumi bo'lib o'tdi.

Mazkur forum doirasida Italiyaning 25 ga yaqin oliy ta'lim muassasasi hamda mamlakatimizning 40 dan ortiq yetakchi oliygohlari rektorlari qatnashdi. Shuningdek, ushbu forumda filialimiz delegatsiyasi ham ishtirok etib, Italiyaning Bolonya universiteti bilan hamkorlik shartnomasi imzolandi.

Bolonya universiteti Italiyaning Bolonya shahrida joylashgan bo'lib, Yevropadagi qadimgi va eng nufuzli universitetlardan biri hisoblanadi. Bolonya universiteti yuridik va siyosiy fanlar, iqtisodiyot, falsafa, san'at, tibbiyot, muhandislik, qishloq xo'jaligi va boshqa ko'plab sohalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi. Bolonya universitetida 60 mingdan ortiq talaba ta'lim oladi.

**O'quv ishlari bo'yicha.** Ushbu oyda filialda joriy o'quv yili uchun iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lib, sirtqi ta'lim shakliga suhbat natijalariga ko'ra tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga kirish uchun Bilim va malakalarni baholash agentligining maxsus elektron platformasi orqali ro'yxatdan o'tgan fuqarolar bilan tegishli Nizomga muvofiq suhbat tashkil etildi.

Filialning Kompyuter injiniringi va sun'iy intellekt fakultetida talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, bilim va malakalarini yanada oshirish maqsadida to'garaklar hamda iqtidorli talabalar xonalari tashkil etildi. Unga ko'ra IT, matematika, fizika va chet tillari yo'nalishida to'garaklar bo'yicha tajribali professor-o'qituvchilar o'rtasida "Ustoz-shogird" an'analariga asosan o'qitish va malaka oshirish yo'lga qo'yiladi.

Shu bilan birgalikda, to'garak rahbarlari o'rtasida "Fan to'garaklari" ko'rik-tanlovi o'tkazilishi va g'oliblarni moddiy rag'batlantirish ham ko'zda tutilgan.

Professor-o'qituvchilar tomonidan strategik rejada belgilangan muhim vazifalar asosida amalga oshirilgan ishlar va qo'lga kiritilgan yutuqlar hamda istiqbolli rejalar yuzasidan filial kafedralari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

TATU Farg'ona filialida yangi o'quv yilida qabul jarayoni holati, talabalarni turar joy bilan ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha, shuningdek, iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyati hamda xalqaro hamkorlik borasida amalga oshirilgan ishlar va istiqboldagi rejalar mavzusida brifinglar tashkil etildi.

**Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va sport sog'lomlashtirish masalalari.** Joriy o'quv yilining datlabki kunida filialimizda "Bir bo'lsak - yagona xalqmiz, birlashsak - Vatanimiz" shiori ostida talabalarni kutib olish tadbiri ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi.

Shu bilan birga 1-kurs talaba qizlari uchun Xotin-qizlar kengashi yig'ilish bo'lib o'tdi. Xotin-qizlar kengashi raisi Z.Otaxonova va dekan maslahatchilari talabalik unvoniga ega bo'lgan qizlar bilan tanishdilar. Filialda xotin-qizlarga yaratilgan sharoitlar va imkoniyatlar haqida ma'lumotlar berildi.

Mazkur oy davomida filialimizda xalqimizning o'tmishi, qadimiy urf-odatlarini, an'analari, estetik qarashlari va o'ziga xos xususiyatlarini mujassam qilgan milliy liboslarimizdan bo'lmish "Xon atlas" festivali bo'lib o'tdi.

Bundan tashqari, oliygohimizda filial Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining hisobot-saylov yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda filial Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining 2023/2024-o'quv yilida amalga oshirilgan ishlari hamda yangi o'quv yili uchun o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bo'yicha filial yetakchisi A.Nabijonov hisobot berdi. Shuningdek, Boshlang'ich tashkilot kengashi a'zolari hamda fakultet koordinatorlari filial talaba yoshlariga tanishtirildi.

Filialimizning Sirtqi bo'lim talabalari bilan "Biz yoshlar korrupsiyaga qarshimiz" mavzusida davra suhbatini tashkil etildi hamda chellenj o'tkazildi.

Bugungi kengaytirilgan yig'ilishda jamoaga yetkaziladigan masalalar shundan iborat edi. Yig'ilish kun tartibidagi asosiy masalalarni kengash a'zolari bilan kichik majlislar zalida davom ettiramiz.

E'tiboringiz uchun rahmat.

**Kun tartibining ikkinchi masalasida** Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i A.Abdulxamidov axborot berdi.

TATU Farg'ona filiali jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona yelektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5132-sonli qarori, 2018-yil 5-oktabrdagi "Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3962-son qarorlari talablaridan kelib chiqqan holda, filial direktorining o'rinbosarlari, dekanlar, kafedra mudirlari hamda bo'lim va markaz, boshliqlari, tarkibiy bo'linmalari, filial huzuridagi

texnikumlar, litseylar tomonidan yuklatilgan vazifalar, topshiriqlar, murojaatlar o'z vaqtida ko'rib chiqilishini doimiy nazorat qilindi hamda monitoringi olib borildi.

TATU Farg'ona filialiga joriy yilning 2024-yil yanvar-sentabr oylarida yuqori tashkilotlardan va idoralardan kelib tushgan hujjatlar hamda topshiriqlar soni jami 2177 tani tashkil etdi.

No	Tashkilot nomi	Hisobot davrida hujjatlar soni	
1	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligidan	<b>996 ta</b>	
		<i>Shundan:</i>	
		Buyruqlar	60 ta
		Qo'shma qaror bayonlar	7 ta
		xatlar	17 ta
			912 ta
2	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetidan	<b>202 ta</b>	
		<i>shundan:</i>	
		Buyruqlar	65 ta
		Farmoyish	16 ta
		Bayon	10 ta
	Xatlar	111 ta	
3	Raqamli texnologiyalar vazirligi	Xatlar	<b>10 ta</b>
4	Farg'ona viloyat hokimligidan	<b>152 ta</b>	
		Qaror	16 ta
		Bayon	16 ta
		Farmoyish	7 ta
		xatlar	113 ta
5	Tashkilotlardan	<b>310 ta xat</b>	
6	Murojaatlar	<b>23 ta</b>	
7	Boshqaruv yig'ilishidagi topshiriqlar	<b>494 ta</b>	
	<b>JAMI</b>	<b>2177 ta</b>	

Shu bilan bir qatorda, bo'lim tomonidan 1583 ta ichki hujjatlar va 837 ta chiquvchi hamda 61 ta XFU grifi hujjatlar ko'rib chiqilib nazoratdan yechilgan.

Devonxona tomonidan barcha xujjatlar edo.ijro.uz yagona elektron tizimiga kiritilib, mas'ullarga yuklatilgan va ular tomonidan ijrosi o'z vaqtida bajarilib kelinganligi nazoratga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasidan va veb saytdan filialga to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan murojatlar qayd etilmagan, yukori tashkilotlardan kelib tushgan murojaatlar 23 tani tashkil etgan, bittasi ijro jarayonida barchasiga belgilangan tartibda o'z muddatida javob xatlari yuborilgan va ijobiy fikrnoma olingan.

OTF va IV tomonidan va yuqori turuvchi tashkilotlardan 2024-yil yanvar-sentabr oylari davomida kelgan buyruqlar va bayonlarga direktor o'rinbosarlari

tomonidan loyihalar tayorlanib, filialning ichki buyruqlari ishlab chiqilgan va ijroga qaratilgan.

Ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan ijro nazorati o'rnatilgan, yig'ilish bayonlari va qarorlari [edo.ijro.uz](http://edo.ijro.uz) yagona elektron tizimiga joylashtirilganligi hamda ijrosini o'z vaqtida ta'minlanishi yuzasidan nazorat olib borildi.

Barcha elektron tizimlar orqali kelib tushgan va ijroga yo'llangan buyruq va farmoyishlar yuzasidan bo'limlarda ishlab chiqilgan ichki buyruq bandlari bo'yicha topshiriqlarni ijrochilarga yetkazish va muddatida bajarilishining nazorati olib borildi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida boshqaruv yig'ilishida berilgan jami 494 ta topshiriq ijrosi nazortga olinib, bajarilishi bo'yicha monitoring olib borildi va ijro-nazorati bo'yicha rahbarga hisobotlar taqdim etildi.

Ushbu masala yuzasidan direktor o'rinbosarlari va fakultet dekanlari fikr-mulohaza bildirdilar.

**Kun tartibining uchinchi masalasida** yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari B.Tolipov axborot berdi.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filialida 1-oktabr "Ustoz va murabbiylar" kuni bayramini nishonlashga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

#### **Rejaga asosan filialda quyidagi tadbirlar amalga oshirildi:**

- 1-oktabr "Ustoz va murabbiylar" kuniga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, mas'ullarga vazifalar belgilandi.

- Farg'ona viloyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasining 2024 yil 26 sentabr 188/4-sonli xatiga asosan 1-oktyabr "Ustoz va murabbiylar" bayramini nishonlash munosabati bilan uzoq yillar mehnat qilib, bugungi kunda keksalik gashtini surayotgan faxriy ustozlarni bayram bilan tabriklash, ularni holidan xabar olish, faxriy ustozlar ishtirokida davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkillash bo'yicha joriy yilning 23-sentabrdan 30-sentabr kuniga qadar "Ustozlarni e'zozlash" haftaligi deb e'lon qildi;

- Talabalar tashabbusi bilan barcha ustozlarni bayram bilan tabriklash chellenjlari tashkil etildi;

- Bayram munosabati bilan professor-o'qituvchilar va xodimlar o'rtasida sportning mini futbol, stol tennis, armrestling turlari bo'yicha musobaqa tashkil etildi;

- Filial Birlashgan kasaba uyushmasi bilan hamkorlikda 28-sentyabr kuni Farg'ona shahridagi "Afrosiyob" to'yxonasida bayram dasturxonini tashkillandi;

- 1-oktabr "Ustoz va murabbiylar" kuni bayrami munosabati bilan filial professor-o'qituvchilari va xodimlari orasidan 5 nafari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining faxriy yorlig'i va tashakkurnoma bilan taqdirlashga tavsiya etildi, 7 nafari viloyat hokimligi tomonidan bayram tadbiriga taklif etildi;

- barcha professor-o'qituvchi va xodimlar bayram munosabati bilan bir martalik moddiy rag'batlantirildi.

Amalga oshirilgan barcha tadbirlar haqida ma'lumotlar va fotolavhalar vazirlikga taqdim etildi va filialning rasmiy sahifalarida keng yoritildi.

Ushbu masala yuzasidan direktor o‘rinbosari B.Polvonov, fakultet dekanlari M.Norinov va O.Otaqulov, kafedra mudirlari G.Obidova, N.Ibroximov, U.Axundjanovlar fikr-mulohaza bildirdilar.

**Kun tartibining to‘rtinchi masalasida** ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari B. Polvonov axborot berdi.

Filialda 2024/2025-o‘quv yilida iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi ishini tashkil etishda quyidagi ustuvor vazifalarga alohida e‘tibor qaratilgan:

- iqtidorli talabalarni izlash va aniqlashni tashkil etish;
- iqtidorli talabalarni intellektual salohiyatini aniqlab borish;
- iqtidorli talabalarning qobiliyati va qanday yo‘nalishga moyilligiga qarab maqsadli tayyorlashni tashkil etish;
- iqtidorli talabalar uchun O‘zbekiston tarixi, xorijiy tillar, axborot texnologiyalari va internetdan foydalanish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlarni tashkil etish;
- iqtidorli talabalarni fundamental ilmiy tadqiqot ishlariga, ilmiy to‘garaklarga va ijodiy jamoalariga jalb qilish;
- iqtidorli talabalarni ilmiy va amaliy anjumanlarga, universitet, universitetlararo, Respublika va xalqaro konferensiya, simpozium, olimpiada va tavlolarda qatnashishlarini tashkil etish;
- iqtidorli talabalar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi va nomli stipendiyalariga, fan olimpiadalariga nomzodlarni tayyorlash, ularning sovrindor bo‘lishiga erishish;
- reytingi yuqori iqtidorli talabalar va ularning rahbarlarini moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash;
- iqtidorli talabalarni ilm-fan namoyondalari, universitet rahbarlari, tajribali professor-o‘qituvchilar bilan davra suhbatlarini tashkil etish;
- iqtidorli talabalar uchun ixtisosligi bo‘yicha kasb o‘yinlari va tanlovlarni tashkil etish;
- tarjimonlik yo‘nalishi bo‘yicha iqtidorli talabalarning ilmiy-ijodiy to‘garaklarini tashkil etish va ularning ilmiy-ijodiy izlanishlariga tegishli shart-sharoit yaratib berish;
- tanlangan yo‘nalish bo‘yicha qo‘shimcha adabiyot va boshqa manbaalar bilan iqtidorli talabalarni ta‘minlash va ulardan foydalanish usullarini o‘rgatish;
- iqtidorli talabalar uchun maxsus chuqurlashtirilgan o‘quv dasturlari ishlab chiqishni va ular asosida ta‘lim berishni tashkil etish.

Hozirgi kunda Oliy talim fan va innovatsiyalar vazirlining buyrug‘iga asosan filialda “Yoshlar akademiyasi” ni tashkil etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Filialda xalqaro talabalar almashinuv dasturi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib joriy yilda 4 nafar iqtidorli talabalarimiz Bangladeshning Dakka shaxrida joylashgan Amerika xalqaro universiteti-Bangladesh (AIUB) da stajirovkada bo‘lib o‘zaro fikir almashib qaytdilar.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni samarali amalga oshirish ishiga oliy o‘quv yurtida barcha direktor o‘rinbosarlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, o‘quv ishlari bo‘yicha bo‘lim boshliqlari va guruh murabbiylari mas‘ul hisoblanadi.



Hozirgi kunda filial iqtidorli talabalari bilan ishlashni tashkil etish va ularni maqsadli tayyorlash yuzasidan fakultet va kafedralarda, quyidagi ish jildnomalarini yuritish tavsiya etiladi:

1. Iqtidorli talabalar bilan ishlash Nizomi;
2. Iqtidorli talabalar bilan ishlash ish rejasi (dasturi);
3. Ish rejasi (dastur)ning bajarilishi to'g'risida hisobotlar;
4. Iqtidorli talabalarga oid oliy o'quv yurti rahbarlarining buyruqlari;
5. Startup va Hackathon va boshqa loyiha-tanlovlari haqidagi ma'lumotlar jamlanmasi;
6. Startup va Hackathon loyiha va tanlovlarida (fakultet, kafedra) qatnashuvchi talabalar va bu borada ular erishgan natijalar haqidagi ma'lumotlar jamlanmasi;
7. Konferensiya, olimpiada, tanlovlar o'tkazilishiga oid hujjatlar;
8. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti nomidagi Davlat stipendiyasi va nomli Davlat stipendiyalariga oid hujjatlar;
9. Iqtidorli talabalarni izlash va ularni maqsadli tayyorlash to'g'risidagi yuqori boshqaruv organlarining qarorlari va buyruqlari;
10. Iqtidorli talabalar qatnashadigan to'garaklarning dasturlari, ish rejaları;
11. Iqtidorli talabalar va ularning rahbarlari haqida ma'lumotlar;
12. Iqtidorli talabalar bilan ishlashga ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan tayinlangan, yuqori pedagogik va ilmiy potensialga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar rahbarlik qiladi.

**Filialda iqtidorli talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish.** Iqtidorli talabalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda va kursdan kursga o'tib borish jarayonida har bir fanning xususiyatlariga qarab, mustaqil ta'limning quyidagi shakl va uslublaridan foydalanish mumkin:

1. O'quv adabiyotlari va uning ma'lum bo'limlari ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
2. Ilmiy adabiyot va maqolalar bilan ishlashga o'rgatish;
3. Iqtidorli talabalarni yozma ishlari va tanlovlarda ishtirok etishga tayyorlash;
4. Fan olimpiadalarini Respublika bosqichida va xalqaro olimpiadalarda ishtirok etishga tayyorlash;
5. Ilmiy tadqiqot ishlarida ishtirok etishni ta'minlash;
6. Ilmiy konferensiyalar va seminarlarda ishtirok etish uchun ma'ruzalar yozishga o'rgatish;
7. Ilmiy referatlar va maqolalar yozishga ko'nikma hosil qildirish;
8. Internetdan foydalanishga va kerakli ma'lumotlarni olishga o'rgatish;
9. Xorijiy tildagi o'quv adabiyotlari va maqolalardan kerakli ma'lumotlarni tanlab tarjima qilish malakasini hosil qilish;
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi va nomli davlat stipendiya tanloviga tayyorlash. Mustaqil ta'limning qaysi shakl va mazmunda tashkil qilishni tanlash jarayonida talabalarnig bilim darajasini hisobga olish lozim. Buning uchun talaba bilan rahbar o'rtasida fan bo'yicha faol muloqot tashkil qilinishi zarur.

Ushbu masala yuzasidan direktor o'rinbosari T.Abdullayev, fakultet dekani X.Sotvoldiyev, bo'lim boshliqlari S.Zokirov va Sh.Umarovlar fikr-mulohaza bildirdilar.

**Kun tartibidagi beshinchi masala yuzasidan** A.Abdulxamidov axborot berdi.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonuni asosida faoliyat yuritildi.

Yukori tashkilotlardan kelib tushgan murojaatlar **23** tani tashkil etgan, bittasi ijro jarayonida bo‘lib, barchasiga belgilangan tartibda o‘z muddatida javob xatlari yuborilgan va ijobiy fikrnoma olingan.

Jumladan,

<b>№</b>	<b>Murojaatni filialga yuborgan tashkilot</b>	<b>Soni</b>	<b>Murojaatning qisqacha mazmuni</b>
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Ishonch telefoni orqali.	12	O‘qishni boshqa oliy ta’lim muassasasiga ko‘chirish, qayta tiklash va kontrakt to‘lov muddatlarini uzaytirish
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Web-sayt orqali	2	Talabalar turar joyidan xona ajratish
3.	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	2	Moddiy yordam va ustama haq to‘lanishi haqida
4.	TATU	6	Talabalar tomonidan o‘quv jarayonlaridagi yakuniy imtixonlardan norozilik bildirilgan
5.	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga murojaat.gov.uz orqali	1	Xorijiy davlatdan o‘qishni ko‘chirish masalasi – ijro jarayonida
<b>JAMI</b>			<b>23 ta</b>

Jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og‘zaki murojaatlari har haftada filialning Boshqaruv yig‘ilishida muhokama etilib, ma’lumotlar o‘z vaqtida, qonun talablariga muvofiq ko‘rib chiqish belgilangan tartibda tashkil etilgan. Filial rahbarlari tomonidan murojaatlarni ko‘rib chiqishda mas’uliyatsizlik va yuzakichilikka yo‘l qo‘yish holatlari qayd etilmagan.

Tahlil natijalariga ko‘ra TATU Farg‘ona filialiga 2023 yil 9 oyi davomida jami 8 ta murojaat kelib tushgan, shundan Raqamli texnologiyalari vazirligidan 7ta va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligidan 1 ta. Jumladan, 4 ta murojaat sirtqi bo‘limi, 2 ta o‘qishni tiklash masalasida, 2 ta o‘qituvchidan noroziligi haqida murojaatlar kelib tushgan. O‘tgan yilga nisbatan shu yilning 9 oyida 15 taga ko‘paygan, eng ko‘p murojaatlar sirtqi bo‘lim (6ta) va Kompyuter injenering fakulteti (6 ta) talabalaridan tushgan.

2024-yil 9 oyida mo‘ljallangan sayyor qabullar jadvali ishlab chiqilgan, o‘tkizilayotgan sayyor va ommaviy qabullarning natijadorligi hamda murojaatlarda ko‘tarilgan muammo va masalalarning mazmun-mohiyatiga jiddiy e’tibor qaratib kelinmoqda, ammo ayrim rahbarlar tomonidan joylarda sayyor qabullar o‘tkazilmay qolingan.

Kelib tushgan murojaatlar har bir fakultet, dekanat va bo‘limlar kesimida tahlil qilinib, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar aniqlanib, murojaatlar bilan ishlashda filial mas’ullarining shahsiy mas’uliyatini oshirish yuzasidan hamda Prezidenti

Administratsiyasining 2023-yil 5-oktabrdagi 16-2080-son va viloyat hokimining 23-vil 19-oktabr kungi 1-43/3110-son xatlar asosida ko'rsatmalar berildi.

Joriy yilning hisobot kuniga qadar jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bir masala yuzasidan qayta murojaat etish holatlari qayd etilmagan.

2024-yilning 30-sentabr kuni holatiga filialga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasidan to'g'ridan to'g'ri murojaatlar kelib tushmagan.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maksadida quyidagi **chora-tadbirlarni** amalga oshirish talab etildi:

- 10 kun muddatda O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 30-yanvardagi 5-F-son farmoyishi hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 2024-yil 3-fevraldagi 12-F-sonli farmoyishi hamda TATU Farg'ona filial direktorining 2024 yil 13 fevral kungi 39-sonli buyrug'ini ijrosini ta'minlashda keltirib o'tilgan kamchiliklarni direktor o'rinbosarlari, dekan, bo'lim boshliqlari, kafedra mudirlari va o'qituvchilar ishtirokida tankidiy-tahliliy o'rganib chiqishni va holatni yaxshilash yuzasidan yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlar rejalarini belgilash;

- murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini muntazam buzilishiga yo'l qo'ygan, murojaatlarda ko'tarilgan masalalarni ijobiy hal etishga yetarlicha e'tibor karatmayotgan mas'ullarga nisbatan belgilangan tartibda intizomiy jazo choralari qo'llash;

- tasdiqlangan jadvallar asosida direktor o'rinbosarlari va bo'lim boshliqlarining shaxsiy va sayyor qabullarini sifat-samaradorligini va murojaatlarni ijobiy yopilishini yaxshilash maqsadida qabullarda tushgan har bir murojaatni kat'iy nazoratga olish va muallif ishtirokida o'rganish, natijalari buyicha ularga javob xatlari yuborishda qonun talablariga rioya etish;

- murojaatlar son jixatdan yuqori bo'lgan bo'limlarda murojaatlar bilan ishlash borasida mas'ul xodimlarning mas'uliyatini oshirish choralari ko'rish;

- fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida va filialda jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish uchun alohida xona ajratilmaganligini inobatga olib, jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish uchun alohida xona asosiy binoning birinchi qavatida ajratish;

- jismoniy va yuridik shaxslarni rahbar tomonidan qabul qilish xonasi alohida bo'lib, xona zaruriy jihozlar bilan ta'minlanishi zarur – stol, kompyuter jamlamasi, telefon, televizor, bayroq, kreslo (raxbarga), fuqarolar uchun stul, kavralin-gilam va boshqa jihozlar.

Yuqoridagi vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar tugrisida joriy yilning 10 noyabr kuniga TATUFF direktoriga axborot kiritishni "Jismoniy va Yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring" bo'limi boshlig'i A.Abdulxamidov zimmasiga yuklatildi.

## **VI. Turli masallar.**

**1. Ilmiy unvon olish uchun Oliy attestatsiya komissiyasiga attestatsiya ishini tavsiya etish to'g'risida N. Qurbonov axborot berdi.**

Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasi mudiri, dotsent Rayimjonova Odinaxon Sodiqovna filial direktorining 2019-yil 4-sentabrdagi 122-K-sonli

buyrug‘i bilan Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasini mudiri lavozimiga tayinlangan.

Rayimjonova Odinaxon Sodiqovna 05.04.01 – “Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash” ixtisosligi bo‘yicha “professor” ilmiy unvonini olish uchun Nizom talablari asosida attestatsiya hujjatlarini tayyorlagan. Rayimjonova Odinaxon Sodiqovna 1975-yilda tug‘ilgan, millati o‘zbek. 1998 yilda Farg‘ona politexnika institutining “Asbobsozlik” markazini bitirgan. Diplom bo‘yicha mutaxassisligi – elektron texnika muxandisi, diplom № 155446 Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini 2019-yilda Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.03.02 raqamli ilmiy kengashda “Nazorat va boshqarish sistemalari uchun gaz oqimlarining parametrlarini gibridd o‘zgartirgichlarini takomillashtirish” mavzusida 05.03.01 – Asboblari. O‘lchash va nazorat qilish usullari (tarmoqlar bo‘yicha) ixtisosligi bo‘yicha ximoya qilgan. 2019 yil 29 iyunda texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi (diplom 01 №001657).

Umumiy ish staji 31 yil, ilmiy-pedagogik ish staji 17 yil. Shu jumladan, Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasini mudiri lavozimida 2019-yil 4-sentyabrdan buyon ishlab kelmoqda.

O.S.Rayimjonova tomonidan 100 ta ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlari chop etilgan. Shulardan, 2 ta monografiya, 7 ta patent (1ta xalqaro), 10 ta DGU, 30 ta ilmiy maqola (8 ta Web of Science va Scopus bazalarida indekslangan, ushbu bazadagi h-indeksi 4 ga teng, Google Scholar bazasida h-indeksi 16 ga teng), 43 ta tezislar (8 ta Scopus bazasida indekslangan), 2 ta darslik (yakka mualliflikda), 6 ta o‘quv qo‘llanma 1 ta (yakka mualliflikda) 5 ta (hammualliflikda), 10 ta o‘quv uslubiy qo‘llanmalar yaratilib, nashr ettirilgan.

PhD dissertatsiyasi himoyasidan keyin 1 ta monografiya, 2 ta patent (1ta xalqaro), 26 ta ilmiy maqola (8 ta Web of Science va Scopus bazalarida indekslangan, ushbu bazadagi h-indeksi 3 ga teng, Google Scholar bazasida h-indeksi 16 ga teng), 22 ta tezis, 2 ta darslik (yakka mualliflikda), 6 ta o‘quv qo‘llanma 1 ta (yakka mualliflikda) 5 ta (hammualliflikda), 6 ta o‘quv uslubiy qo‘llanmalar yaratilib nashr ettirilgan va 10 ta elektron hisoblash mashinalari uchun guvohnomalar olingan.

Tabiiy fanlar kafedrasini mudiri PhD Daliyev Baxtiyor Sirojiddinovich 01.01.03– Hisoblash matematikasi va diskret matematika ixtisosligi bo‘yicha “dotsent” ilmiy unvonini olish uchun Nizom talablari asosida attestatsiya hujjatlarini tayyorlagan.

Daliyev Baxtiyor Sirojiddinovich 1972-yilda Farg‘ona viloyati, O‘zbekiston tumani, ziyolilar oilasida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Toshkent Davlat universitetini 1994-yilda tamomlagan. Diplom bo‘yicha ixtisosligi – Mexanik. Matematik amaliyotchi, diplom № 000745.

B.Daliyev mehnat faoliyatini 1994/1998-yillarda Farg‘ona viloyati, O‘zbekiston tumani, 21-maktabda matematika o‘qituvchisi lavozimida boshlagan. 1998/2000-yillarda Farg‘ona viloyati, O‘zbekiston tumani, 1-son tabiiy fanlar litsey-internatida matematika va informatika o‘qituvchisi, 2000/2001-yillarda Farg‘ona politexnika instituti qoshidagi litsey-internatda matematika fani o‘qituvchisi, 2001/2009-yillarda Farg‘ona politexnika instituti oliy matematika kafedrasida

assistent, 2009/2017-yillarda Farg'ona politexnika instituti oliy matematika kafedrasida katta o'qituvchi, 2018/2020-yillarda Farg'ona politexnika institutida tayanch doktorant, 2020/2022-yillarda Farg'ona politexnika instituti oliy matematika kafedrasida katta o'qituvchi, 2023-yil 1-martdan hozirgi kunga qadar Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali Telekommunikatsiya injiniringi va kasb ta'limi fakulteti dekani vazifasini bajarib kelmoqda. B.Daliyev 01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika ixtisosligi bo'yicha tayyorlagan dissertatsiyasini 2022-yilda O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy Kengashda muvaffaqiyatli himoya qilib, 2022-yil 30-noyabrda fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi. Umumiy ish staji – 30 yil, shundan ilmiy-pedagogik ish staji – 30 yil. PhD dissertatsiyasi himoyasidan keyin ja'mi 10 ta: 6 ta ilmiy maqola, 3 ta tezis, 1 ta uslubiy qo'llanma, 1 ta monografiya nashr etilgan.

O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti v.b. PhD Xatamova Zumradxon Nazirjonovna 07.00.01 – O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha "dotsent" ilmiy unvonini olish uchun Nizom talablari asosida attestatsiya hujjatlarini tayyorlagan. Xatamova Zumradxon Nazirjonovna 1982-yilda Farg'ona viloyati, Olti ariq tumani, ziyolilar oilasida tug'ilgan. Millati o'zbek. Qo'qon Davlat pedagogika institutini 2003-yilda tamomlagan. Diplom bo'yicha ixtisosligi – Tarix-huquqshunos, diplom B № 012895. 2003-2005-yillarda Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti "Vatan tarixi" ixtisosligi bo'yicha magistraturani tamomlagan. Diplom bo'yicha ixtisosligi – "Tarix" M № 017381. 2003-2005-yillarda Farg'ona davlat universiteti magistranti, 2005-2023-yillarda Farg'ona politexnika instituti o'qituvchisi, 2023-yil sentyabrdan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida v.b.dotsenti vazifasini bajarib kelmoqda. 2022-yildan tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). 07.00.01 – "O'zbekiston tarixi" ixtisosligi bo'yicha olish uchun "Qo'qon xonligida soliq tizimi" mavzusidagi tayyorlagan dissertatsiyasini 2022 yilda Farg'ona davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03.31.03.2021.Tar.05.05 raqamli Ilmiy Kengashda muvaffaqiyatli himoya qildi hamda 2022-yil 30-iyunda tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi. 2022-yildan buyon – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). PhD dissertatsiyasini 2022-yilda Farg'ona davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03.31.03.2021.Tar.05.05 raqamli Ilmiy Kengashda "Qo'qon xonligida soliq tizimi" mavzusida 07.00.01-O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha muvaffaqiyatli himoya qilib, 2022-yil 30-iyunda tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi.(Diplom – 01№007202) Umumiy ish staji – 25 yil, shundan ilmiy-pedagogik ish staji – 20 yil. PhD dissertatsiyasi himoyasidan keyin ja'mi 18ta: 10ta ilmiy maqola, 4 ta tezis, 1 ta uslubiy qo'llanma, 3 ta monografiya nashr etilgan.

"O'zbek tili va gumanitar fanlar" kafedrasida dotsenti v.b., PhD Rustamov Ilxomidin Abduqodirovich 07.00.01 – «O'zbekiston tarixi» ixtisosligi bo'yicha "dotsent" ilmiy unvonini olish uchun Nizom talablari asosida attestatsiya hujjatlarini tayyorlagan.

Rustamov Ilxomidin Abduqodirovich 1973-yilda tug'ilgan, millati o'zbek. 1995-yilda Farg'ona davlat universitetini tamomlagan va diplom bo'yicha ixtisosligi "Tarixchi, tarix o'qituvchisi", diplom N №061911. Falsafa doktori (PhD)

dissertatsiyasini 2022-yil 2-fevralda Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/30.06.2020.fal.60.04 raqamli Ilmiy Kengashda «Abu Ali ibn Sino falsafiy talimotining yoshlar dunyoqarashini yuksaltirishdagi ahamiyati» mavzusida 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo‘yicha muvaffaqiyatli himoya qilgan. 2022 yil 28 fevralda falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi (diplom 01 №006410). Umumiy ish staji 34 yil, ilmiy-pedagogik ish staji 29 yil. Shu jumladan, dotsent v.b. lavozimida 2023-yil sentyabrdan buyon ishlab kelmoqda.

Rustamov Ilxomidin Abduqodirovich tomonidan 50 dan ortiq ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlari chop etilgan. Shulardan 15 tasi ilmiy maqola, 34 tasi tezislari, 2 ta o‘quv qo‘llanma, 4 ta uslubiy ko‘rsatma, 3 ta monografiya.

PhD dissertatsiyasi himoyasidan keyin 5 ta ilmiy maqola, 14 ta tezis, 2 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta uslubiy ko‘rsatma, 2 ta monografiya nashr etilgan.

Fakultet dekanlari O.Otaqulov va X. Sotvoldiyev, direktor o‘rinbosari T.Abdullayev hamda direktorning birinchi o‘rinbosari B.Tolipovlar talabgorlarning ilmiy faoliyati va tadqiqot ishlari yuzasidan ijobiy fikr bildirishib, attestatsiya hujjatlarini OAKka tavsiya qilish uchun ochiq ovoz berish taklifini o‘rtaga tashladilar. Berilgan taklif bir ovozdan ma’qullandi, qarshilar va betaraflar bo‘lmadi. Talabgorlar Rayimjonova Odina Sodiqovnaning attestatsiya ishi hujjatlari 05.05.08 – Elektronika ixtisosligi bo‘yicha «professor» ilmiy unvonini olish uchun, Xatamova Zumradxon Nazirjonovnaning attestatsiya ishi hujjatlari 07.00.01 – O‘zbekiston tarixi ixtisosligi bo‘yicha “dotsent” ilmiy unvonini olish uchun, Rustamov Ilxomiddin Abduqodirovichning attestatsiya ishi hujjatlari 07.00.01 – O‘zbekiston tarixi ixtisosligi bo‘yicha “dotsent” ilmiy unvonini olish uchun, Daliyev Baxtiyor Sirojiddinovichning attestatsiya ishi hujjatlari 01.01.03– Hisoblash matematikasi va diskret matematika ixtisosligi bo‘yicha “dotsent” ilmiy unvonini olish uchun ochiq ovoz berish yo‘li bilan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga tavsiya qilindi.

**2. Ilmiy-uslubiy ishlarni nashrga tavsiya etish** haqida Sh. Umarov va S.Zokirov axborot berdi.

Ilmiy-pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash bo‘limi boshlig‘i S.Zokirov filial professor-o‘qituvchilari tomonidan tayyorlanib, fakultet o‘quv-uslubiy kengashi muhokamasidan o‘tgan quyidagi monografiyalar mundariyasi, maqsad va vazifasi, berilgan taqrizlar, fakultet bayonnomalaridan ko‘chirmalar haqida batafsil ma’lumot berdi:

1. Tabiiy fanlar kafedrasida professori B. Z. Polvonovning “Nurlanishlarni moddalar bilan o‘zaro ta’siriga oid bilimlarni innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish” mavzusidagi monografiyasi;

2. O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida o‘qituvchisi O.U.Xolmatovanning “O‘zbek xalq maqollarining lingvokognitiv xususiyatlari” mavzusidagi monografiyasi.

Ilmiy-pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash bo‘limi boshlig‘i S.Zokirov mazkur monografiyalarni nashr etish uchun tavsiya qilish taklifini o‘rtaga tashladi va taklif kengash a’zolari tomonidan bir ovozdan ma’qullandi.

O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i Sh.Umarov quyida keltirilgan professor-o‘qituvchilarning o‘quv adabiyotlari berilgan talablarga muvofiqligi, filial va soha

mutaxassislaridan taqrizlari mavjudligi, kafedralar va fakultet kengashlarida muhokama qilinganligi to'g'risida ma'lumot berdi va filial kengashiga nashr qilishga tavsiya etilishga ruxsat berilishini so'radi:

***Darslik 2 ta:***

- Axborot xavfsizligi kafedrasida professori F.Muxtarov va TATU Samarqand filiali katta o'qituvchisi I.Rahmatullayev, TATU katta o'qituvchisi O.Mavlonovlarning “Kiberhuquq va kibernetikaning nazariy asoslari” nomli darsligi;
- Axborot xavfsizligi kafedrasida M.Turdimatovning “Kiberxavfsizlik siyosati” nomli darsligi;
- Axborot xavfsizligi kafedrasida Sh.Umarovning “Kriptotahlil” nomli darsligi;

***O'quv qo'llanmalar 3 ta:***

- O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti I.Tishabayevning “O'zbekistonning eng yangi tarixi” nomli o'quv qo'llanmasi;
- Kompyuter tizimlari kafedrasida katta o'qituvchisi M.Lazerovning “Obespechenie kachestva programnogo obespecheniya” nomli o'quv qo'llanmasi;
- Axborot ta'lim texnologiyalari kafedrasida assistenti D.Sotvoldiyevning “Ma'lumotlarning intellektual tahlili” nomli o'quv qo'llanmasi;

***Uslubiy qo'llanmalar 3 ta:***

- Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasida o'qituvchilari M.Xalilov, I.Mahmudov, D.Komilovlarning “Axborot kodlash nazariyasi” nomli uslubiy qo'llanmasi;
- O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchilari M.Toshpo'latova, D.Maxkamova, M.Jurayeva, D.Sirojiddinovalarning “Improve your english skills” uslubiy qo'llanmasi;
- O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchilari A.Tadjibaeva, N.Nabijonova, S.Xamroqulova, Y.Ma'rufovalarning “Learn english through economy” uslubiy qo'llanmasi;
- Sotvoldiyev X.I, "Dasturiy ta'minotdan qayta foydalanish" uslubiy qo'llanma.

Muhokamalardan so'ng yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'quv qo'llanmalar va darsliklar nashr qilishga ruxsat olish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashiga tavsiya qilindi. Uslubiy qo'llanmalar esa nashr etish uchun ma'qullandi.

**3. Dissertatsiya mavzularini tasdiqlash va ilmiy rahbarlarni tayinlash to'g'risida S. Zokirov axborot berdi.**

Masala yuzasidan so'zga chiqqan ITI va IPKTb boshlig'i S.Zokirov “O'zbek tili va gumanitar fanlar” kafedrasida katta o'qituvchisi Arabboyev Xurshidbek Xusniddinovich 13.00.02 - “Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlanadigan “Tibbiy ta'lim talabalarini Krossfit metodi orqali ommaviy sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash texnologiyasi (jismoniy tarbiya va sport fanini o'qitish misolida)” nomli dissertatsiya ishiga doir kafedra tomonidan

taqdim etilgan hujjatlar hamda Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Pedagogika fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) Komilov Nodirbek Bokijonovich nomidan ushbu ishga ilmiy rahbar bo‘lishga berilgan rozilik xati mazmuni bilan Kengash a‘zolarini tanishtirdi.

Fakultet dekani X. Sotvoldiyev, O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasini mudiri G.Obidova yuqoridagi dissertatsiya mavzularining aktualligi va dolzarbligi haqida fikr- mulohaza bildirdilar

**4. Dotsent (vazifasini vaqtincha bajaruvchi) va professor (vazifasini vaqtincha bajaruvchi) lavozimlariga tavsiya qilish haqida** ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari B.Polvonovning axboroti eshitildi.

**Kompyuter tizimlari kafedrasini dotsenti vazifasini bajaruvchi lavozimiga** talabgor Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o‘g‘li, 1982-yilda tug‘ilgan. 2007-yilda Farg‘ona davlat universitetini tamomlagan. Umumiy mehnat staji 17 yil. Ilmiy-pedagogik mehnat staji 17 yil. Mazkur lavozimda 2013 yildan buyon ishlaydi.

Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o‘g‘li yosh mutaxassislarni sifatli tayyorlash dasturini amalga oshirishga yordam beradigan etarli tajriba va malakaga ega.

A.D.Dilshodov o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bilimlarini tinimsiz oshirib kelmoqda. 2015, 2018, 2021 yil hamda 2024 yillarda TATU mintaqaviy markazida “Kompyuter injiniringi” yo‘nalishi bo‘yicha malaka oshirish kursini muvaffaqiyatli tugatib, sertifikatga ega bo‘lgan. “Axborot xavfsizligi (sohalar bo‘yicha)”, “Kiberxavfsizlik injiniringi”, “Kompyuter injiniringi (AT-servis, Kompyuter injiniringi)”, “Telekommunikatsiya texnologiyalari (Telekommunikatsiyalar)”, “AKT sohasida kasb ta‘limi” va “Pochta aloqasi texnologiyasi” yo‘nalishlari bakalavrlari uchun ma‘ruza, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazadi. Darslar davomida zamonaviy, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanadi.

A.D.Dilshodov pedagogik mahorati va ilmiy salohiyatini oshirish yo‘lida izlanishlar olib borib, xalqaro va Respublika ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlarda faol qatnashib kelmoqda.

Ko‘plab ilmiy va ilmiy-metodik ishlar, shu jumladan 4 ta xalqaro ilmiy jurnallarda, 7 ta OAK mahalliy ilmiy jurnallarda, 8 ta O‘zbekiston ilmiy jurnallarida, 25 ta xalqaro ilmiy konferensiyalarda maqola va tezislar, 40 ta Respublika konferensiyalarida tezislar muallifi hisoblanadi. 20 dan ortiq o‘quv-uslubiy ko‘rsatmalar, 2 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar muallifi hisoblanadi. Shuningdek, u dasturiy vositalar uchun 8 ta sertifikat olishda ishtirok etdi, o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha 10 dan ortiq o‘quv-metodik komplekslarni ishlab chiqdi.

2020-yilda “Kompyuter tarmoqlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi tayyorlandi. 2024 yilda “Elektron hukumat” o‘quv qo‘llanmasi tayyorlandi. O‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etiladi.

A. Dilshodov o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bilimlarini yanada chuqurlashtirish maqsadida 2018 yilda Hindistondagi Centre for development of advanced computing (CDAC-Noida) institutning “Specialized programming on e-governance application development” kursini muvaffaqiyatli tugatib, sertifikatga ega bo‘lgan. Bundan tashqari u 2021 yil Hindistondagi Lovely Professional University (LPU)



universitetining “Adapting to new era of blended teaching and learning” kursini muvaffaqiyatli tugatib, sertifikatga ega bo’lgan.

A.D.Dilshodov belgilangan vazifalarni vijdonan bajaradi, ilmiy salohiyatini oshirish uchun tinimsiz ishlaydi.

2020-yilda o’qituvchi va ustoz kuniga erishgan yutuqlari uchun Farg’ona shahar hokimligi yorlig’i bilan taqdirlandi.

2024-yilda TATU Farg’ona filiali tomonidan universitet reyting ko’rsatkichlarini oshirishda faol istirokim uchun tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

Filialda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy va ijtimoiy ishlarda faol ishtirok etib, professor-o’qituvchilar va talabalar orasida hurmatga sazovor.

Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o’g’li, ilmiy-pedagogik faoliyatida erishgan yutuqlarini hamda faoliyat olib borayotgan kafedra tavsiyasiga inobatga olgan holda, v.b.“dotsent” ilmiy unvonini olishga tavsiya eniladi.

Shundan so’ng filial Kengashi a’zolari nomzodlar A.D.Dilshodov va X.Musayevlarni kafedrada dotsent (vazifasini bajaruvchi) lavozimida ishlashiga ruxsat berish uchun ochiq ovozga qo’yish orqali tavsiya qildilar va bir ovozdan ma’qulladilar, qarshilar va betaraflar bo’lmadi.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg’ona filiali “O‘zbek tili va gumanitar fanlar ” kafedrasida mudiri Obidova Gulmira Kuzibaevna, 1986-yilda tug‘ilgan. 2009-yilda Farg‘ona davlat universitetini tamomlagan. Umumiy mehnat staji 17 yil. Ilmiy-pedagogik mehnat staji 15 yil. Mazkur lavozimda 2024-yildan buyon ishlaydi.

**Axborot texnologiyalari kafedrasida dotsenti vazifasini bajaruvchi lavozimiga** talabgor Mamadaliyev Nurillo Azizilloevich, 2019-yildan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg’ona filiali Axborot texnologiyalar kafedrasida Pedagogika ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha “Oliy ta’lim muassasasi talabalarida katta o‘qituvchisi lavozimida ishlab kelmoqda. N.A.Mamadaliyev tomonidan 50 dan ortiq ilmiy ishlar chop etilgan, shundan 25 ta ilmiy maqola, 18 ta maqola tezislari, 1 ta darslik, 3 ta o‘quv qo‘llanma, 3 ta o‘quv uslubiy ko‘rsatma, muallifi.

N. A. Mamadaliyev “Axborot texnologiyalari” kafedrasida o‘quv - uslubiy va ilmiy – tadqiqot ishlarida faol ishtirok etishi orqali, xalqaro va Respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy anjumanlarda 40 ta ilmiy maqola va tezislar, 2 ta o‘quv qo‘llanma, 10 dan ortiq o‘quv - uslubiy ko‘rsatmalar, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi 2-ta guvohnomalar muallifi hisoblanadi.

N. A. Mamadaliyev ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi bosqich talabalariga “Ma’lumotlar tuzilmasi va algoritmlar”, “Geoaxborot texnologiyalari” “Bioinformatika va biomexanika”, kabi fanlardan ma’ruza, amaliyot va laboratoriya

mashg'ulotlarini yuqori saviyada o'tkazmoqda. U Axborot texnologiyalari kafedrasida ish faoliyati jarayonida yuklatilgan barcha vazifalarni mas'uliyat bilan o'z vaqtida bajarib kelmoqda.

Umumiy mehnat staji - 34 yil, shu jumladan, ilmiy - pedagogik staji 29 - yil, OTMlarda - 22 yil.

1991-1996 yy. - Namangan sanoat-texnologiyasi instituti talabasi

1996-1997 yy. - Farg'ona politexnika instituti assistenti.

1997-1998 yy. - O'zbekiston Respublikasi qurolliy kuchlari askari.

1998-1998 yy. - Farg'ona politexnika instituti assistenti.

1998-2003 yy. - Xalqaro biznes maktabi Farg'ona filiali o'qituvchisi.

2003-2004 yy. - Farg'ona "Azot" zavodi, muxandis.

2004-2010 yy. - Toshkent tibbiyot akademiyasi Farg'ona filiali, assistent.

2010-2012 yy. - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali "Kasbiy ta'limi" kafedrasida assistenti.

2012-2013 yy. - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali "Kasbiy ta'limi" kafedrasida katta o'qituvchisi.

2013-2015 yy. - Farg'ona Oliy menedjment maktabi direktori.

2015-2017 yy. - Farg'ona viloyati xalq ta'litmi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti "Aniq va tabiiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi.

2017-2019 yy. - Moskva shaxrida "Choyxona-1" restoranida administrator.

2019-2019 yy. - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali "Axborot texnologiyalar" kafedrasida katta o'qituvchisi.

2019-2019 yy. - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i.

04.09.19 y.-x.v. - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali "Axborot texnologiyalar" kafedrasida katta o'qituvchisi.

N. A. Mamadaliyev o'zi faoliyat olib borayotgan "Axborot texnologiyalari" kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan o'qitilayotgan "Geoaxborot texnologiyalari", "Kompyutorli texnologiyalar", "Bioinformatika va biomexanika", "Pythonda geoma'lumotlar tahlili" fanlarining ishchi-o'quv dasturlarini va o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqishda asosiy muallif hisoblanadi.

N. A. Mamadaliyev filial, fakultet va kafedraning ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida ham faol ishtirok etib, har yili filial va fakultet miqyosida 14 yanvar - Vatan himoyachilari kuni, 21-mart - Navro'z bayramiga, 9-may - Xotira va qadrlash kuni, O'zbekiston Respublikasining Mustaqil-ligiga bag'ishlangan bayramlarda, 1-oktabr - O'qituvchilar va murabbiylar kuniga, 8 dekabr - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunga bag'ishlangan tantanali bayramlarni tashkil etish va o'tkazishda talabalar bilan birgalikda faol ishtirok etib keladi.

Shu bilan birga, iqtidorli talabalar bilan yaqindan ishlash va ularning bajargan amaliy ishlarini taqdirlash maqsadida Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali Kompyuter injiniringi, Telekommunikatsiya texnologiyalari va kasbiy ta‘lim fakultetlari iqtidorli talabalari va yosh mutaxassisleri ishtirokida “Yosh professor-o‘qituvchilar, magistrlar va iqtidorli talabalarning qurilma va dasturiy ishlanmalari ko‘rgazmasi”ni tashkil etishda faol qatnashdi.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filialida iqtidorli talabalar va yosh mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlash, ularni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish bo‘yicha doimiy rahbarlik ishlarni olib bormoqda.

**O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasini professori vazifasini bajaruvchi lavozimiga** talabgor Obidova Gulmira Kuzibayevna 2019 yil dekabr oyida 13.00.02-Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Chet tilini o‘qitishda talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish texnologiyalari” mavzusida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgan.

2023-yil may oyida 13.00.02-Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha OAK tomonidan dotsent ilmiy unvonini olgan.

Obidova Gulmira Kuzibaevna 2023-yil oktyabr oyida o‘tkazilgan “O‘zbekiston ayollarining eng yaxshi innovasion loyihalari” viloyat bosqichida “Eng samarali innovasion loyiha nominatsiyasi”da g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

2023-yil “Yil ayoli” respublika tanlovida “Eng faol olim ayol” nominatsiyasida viloyat bosqichida 1chi o‘rinni egalladi.

2020-2022-yillar uchun mo‘ljallangan № BYOA 1- 012– sonli “Oliy ta‘lim muassasalarida chet tili mashg‘ulotlarida talabalarning ekologik madaniyatlarini rivojlantirish” mavzusidagi loyihada ishtirokchi.

2024-yil fevral oyida Green Start” dasturi doirasida yashil startap loyihalar tanlovida g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

Obidova Gulmira Kuzibayevna faoliyati jarayonida xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘ygan, 2021 noyabr oyida Qozog‘istonning Farobiy nomidagi milliy universiteti hamda Qozog‘iston Agrar universitetlariga “Texnika oliy o‘quv yurtlarida ingliz tilini o‘qitish metodlari” bo‘yicha hamda 2023 yil aprel oyida Turkiyaning EGE universitetida “Xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar” mavzularida tajriba almashib kelgan.

Obidova Gulmira Kuzibayevna tomonidan dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta darslik, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta monografiya, 2 ta uslubiy qo‘llanma 1 ta elektron platforma va O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan,10

tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Filialda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy ishlarda faol ishtirok etib, professor-o'qituvchilar va talabalar orasida hurmatga sazovor.

Obidova Gulmira Kuzibaevna, ilmiy-pedagogik faoliyatida erishgan yutuqlarini hamda faoliyat olib borayotgan kafedra tavsiyasiga inobatga olgan holda, v.b. "dotsent" ilmiy unvonini olishga tavsiya etiladi.

Ushbu masala yuzasidan kengash a'zolari F.Muxtarov, Sh.Umarov, S.Zokirov va O.Otaqulovlar fikr-mulohaza bildirdilar. Berilgan takliflardan kelib chiqib, kengash a'zolari mazkur professor-o'qituvchilarga aytib o'tilgan lavozimlarda ishlashlariga ruxsat berishni bir ovozdan ma'qulladilar.

**5. Vazirlik, rektor, direktor, o'rinbosarlar va fakultet dekanlari tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishni qasddan rad etish va unga bo'ysunmaslik yuzasidan qonuniy chora ko'rish** haqida B. Tolipov axborot berdi.

TATU Farg'ona filialining 2024-yil 23-sentabr kungi boshqaruv yig'ilish qarori bo'yicha berilgan topshiriqlarni ijrosi yuzasidan subordinatsiyaga jiddiy rioya qilishni ta'minlash, Vazirlik, rektor, direktor, o'rinbosarlar va fakultet dekanlari tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishni qasddan rad etish va unga bo'ysunmaslik yuzasidan qonuniy chora ko'rish masalasi Kengash yig'ilishida ko'rib chiqish belgilangan.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda professor-o'qituvchilar va ishchi-xodimlar tomonidan yuqori turuvchi rahbarlarning ish bo'yicha qonuniy talablarini bajarmaslik uchun O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunlariga asosan intizomiy choralar ko'rilishi haqida ogohlantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksining 161-moddasi 5-qismiga ko'ra xodim o'z mehnat majburiyatlarini bir marta ko'pol ravishda buzishi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bir tomonlama bekor qilishga asos bo'ladi.

TATU Fargona filiali professor-o'qituvchilari va ishchi-xodimlar TATU Farg'ona filialining ichki mehnat tartib-qoidalariga, ustav va nizomlarga qat'iy amal qilgan holda faoliyat olib borishlari talab etiladi.

Ushbu masala yuzasidan filial direktori F. Muxtarov, direktor o'rinbosarlari B. Polvonov, T.Abdullayev, Ishlar boqarmasi boshlig'i A.Djabarovlar fikr-mulohaza bildirdilar.

## **Yuqoridagi masalalar yuzasidan Kengash q a r o r q i l a d i:**

I. 1. 1. Filial direktori F. Muxtarovning ma'ruzasi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kumush nishon bilan Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi Eshimova Nasibaxon Rahmatullaevna taqdirlansin.

3. Oltin nishon bilan Xorijiy tillar kafedrasini mudiri Obidova Gulmira Kuzibaevna taqdirlansin.

4. Kumush va oltin nishon sovrindorlari tegishli tartibda moddiy rag'batlantirilishi ta'minlansin. Mas'ul: M.Nurmatov.

II. 1. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i A.Abdulxamidovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Filial direktorining o'rinbosarlari, dekanlar, kafedra mudirlari hamda bo'lim va markaz, boshliqlari ijro intizomi bilan ishlash bo'yicha mas'ullarga edo.ijro.uz tizimiga kelgan hujjatlar bilan o'z vaqtida tanishib borilsin va ijrosi o'z vaqtida ta'minlansin.

3. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limiga:

- Edo.ijro.uz tizimida ijro intizomiga rioya qilmagan, belgilangan muddatlarda ijrosini ta'minlamagan mas'ullarga qonunchilik doirasida intizomiy chora ko'rish bo'yicha ma'lumot kiritish;

- kengash, boshqaruv yig'ilishlarining qarorlari ijrosi bo'yicha tegishli hujjatlarni va ma'lumotlarni Edo.ijro.uz elektron tizimiga mas'ullar tomonidan yuklashni nazorat qilish.

III. 1. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari B. Tolipovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 1-oktabr "Ustoz va murabbiylar" kuni munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yuqori saviyada tashkil etilsin.

3. Fakultet dekanlari va kafedra mudirlari tomonidan 1-oktyabr "Ustoz va murabbiylar" bayramini nishonlash munosabati bilan uzoq yillar mehnat qilib, bugungi kunda keksalik gashtini surayotgan faxriy ustozlarni bayram bilan tabriklash, ularni holidan xabar olish, faxriy ustozlar ishtirokida davra suhbatlari va uchrashuvlar tadbirlar tashkil etilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini bajarilishini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari B.Tolipov zimmasiga yuklatilsin.

IV. 1. Kun tartibidagi "Iqtidorli talabalarni nomdor va Davlat stipendiyalariga tavsiya qilish" masala yuzasidan Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari B.Z.Polvonovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-2025 o'quv yili uchun dekanat va kafedralar kesimida Davlat va nomdor stipendiya sovrindorligiga nomzodlarni tavsiya etishga oid faoliyat natijalari tanqidiy o'rganib chiqilsin hamda bu borada o'tgan davrida yo'l qoyilgan kamchiliklar navbatdagi o'quv yilida to'liq bartaraf etilib, barcha imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanilgan holda amalga oshirishligi shart va zarur ekanligi belgilab qo'yilsin.

3. Filial "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi" va dekanat, tegishli kafedra mudirlari, birlashtirilgan ilmiy rahbarlarga 2024/2025-o'quv yili uchun davlat va nomdor stipendiyalarga eng munosib iqtidorli talabalar orasidan nomzod-davogarlar hamda ular xujjatlarini amaldagi me'yoriy-talablar asosida tayyorlab borishligi, ularga samarali zarur shart-sharoitlar yaratib berish vazifasi yuklatilsin.

4. Filialning navbatdagi avgust oyi Kengashida barcha fakultet dekanlarining bu borada amalga oshirgan natijador ishlar yuzasidan tahliliy ma'lumot-hisobotlarini taqdim etishlari belgilab qo'yilsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini doimiy nazorat qilib borish direktor o'rinbosari B.Polvonov zimmasiga yuklatilsin.

V. 1. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i A.Abdulxamidovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 1 oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 30-yanvardagi 5-F-son farmoyishi hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 2024-yil 3-fevraldagi 12-F-sonli farmoyishi hamda TATU Farg'ona filial direktorining 2024 yil 13-fevral kungi 39-sonli buyrug'ini ijrosini ta'minlashda keltirib o'tilgan kamchiliklarni direktor o'rinbosarlari, dekan, bo'lim boshliqlari, kafedra mudirlari va o'qituvchilar ishtirokida tanqidiy-tahliliy o'rganib chiqilsin.

3. Tasdiqlangan jadvallar asosida direktor o'rinbosarlari va bo'lim boshliqlarining shaxsiy va sayyor qabullarini sifat-samaradorligi va murojaatlarning ijobiy yopilishini yaxshilash maqsadida qabullarda tushgan har bir murojaatni qat'iy nazoratga olish va muallif ishtirokida o'rganish, natijalari bo'yicha ularga javob xatlari yuborishda qonun talablariga rioya etilsin.

4. Murojaatlar son jihatdan yuqori bo'lgan fakultet va bo'limlarda murojaatlar bilan ishlash borasida mas'ul xodimlarning mas'uliyatini oshirish choralari ko'rilsin.

5. Jismoniy va yuridik shaxslarni rahbar tomonidan qabul qilish xonasi tashkil qilinsin va zarur jihozlar bilan ta'minlansin.

VI. 1. Kengash kotibi N. Qurbonovning Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga tayyorlangan hujjatlar mazmuni bo'yicha bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

1. 2. Ochiq ovoz berish bo'yicha kengash a'zolarining ovozlari tasdiqlansin hamda talabgorlar Rayimjonova Odina Sodiqovnaning attestatsiya ishi hujjatlari 05.04.01 – "Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash" ixtisosligi bo'yicha "professor" ilmiy unvonini olish uchun, Daliev Baxtiyor Sirojiddinovichning attestatsiya ishi hujjatlari 01.01.03 – "Hisoblash matematikasi va diskret matematika" ixtisosligi

bo'yicha "dotsent" ilmiy unvonini olish uchun, Xatamova Zumradxon Nazirjonovnaning attestatsiya ishi hujjatlari 07.00.01 – "O'zbekiston tarixi" ixtisosligi bo'yicha "dotsent" ilmiy unvonini olish uchun, Rustamov Ilxomidin Abduqodirovichning attestatsiya ishi hujjatlari 07.00.01 – "O'zbekiston tarixi" ixtisosligi bo'yicha "dotsent" ilmiy unvonini olish uchun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga tavsiya etilsin.

VI. 2. 1. Ilmiy-pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash bo'limi boshlig'i S.Zokirov, O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i Sh.Umarovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2. Quyidagi monografiyalar nashr etish uchun tavsiya qilinsin:

- TATU FF Tabiiy fanlar kafedrasida professori B.Z.Polvonov muallifligidagi "Nurlanishlarni moddalar bilan o'zaro ta'siriga oid bilimlarni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish" mavzusidagi monografiya;

- O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi O.U.Xolmatovanning "O'zbek xalq maqollarining lingvokognitiv xususiyatlari" mavzusidagi monografiyasi.

2. 3. Quyida keltirilgan professor-o'qituvchilarning o'quv adabiyotlari TATU Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashiga tavsiya etilsin:

– Axborot xavfsizligi kafedrasida professori F.Muxtarov va TATU Samarqand filiali katta o'qituvchisi I.Rahmatullayev, TATU katta o'qituvchisi O.Mavlonovlarning "Kiberhuquq va kibernetikaning nazariy asoslari" nomli darsligi;

– Axborot xavfsizligi kafedrasida M.Turdimatovning "Kiberxavfsizlik siyosati" nomli darsligi;

– Axborot xavfsizligi kafedrasida Sh.Umarovning "Kriptotahlil" nomli darsligi;

– O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti I.Tishabayevaning "O'zbekistonning eng yangi tarixi" nomli o'quv qo'llanmasi;

– Kompyuter tizimlari kafedrasida katta o'qituvchisi M.Lazerovanning "Obespechenie kachestva programmno go obespecheniya" nomli o'quv qo'llanmasi;

– Axborot ta'lim texnologiyalari kafedrasida assistenti D.Sotvoldiyevaning "Ma'lumotlarning intellektual tahlili" nomli o'quv qo'llanmasi;

2. 4. Quyida keltirilgan professor-o'qituvchilarning uslubiy qo'llanmalari nashr qilishga tavsiya etilsin:

– Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasida o'qituvchilari M.Xalilov, I.Mahmudov, D.Komilovlarning "Axborot kodlash nazariyasi" nomli uslubiy qo'llanmasi;

– O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchilari M.Toshpo'latova, D.Maxkamova, M.Jurayeva, D.Sirojiddinovalarning "Improve your english skills" uslubiy qo'llanmasi;

– O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchilari A.Tadjibaeva, N.Nabijonova, S.Xamroqulova, Y.Ma'rufovalarning "Learn english through economy" uslubiy qo'llanmasi;

- Sotvoldiyev X.I, "Dasturiy ta'minotdan qayta foydalanish" uslubiy qo'llanma.

VI. 3. 1. Ilmiy-pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash bo'limi boshlig'i S.Zokirovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2. "O'zbek tili va gumanitar fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi Arabboyev Xurshidbek Xusniddinovichning 13.00.02 - "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi" Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlanadigan "Tibbiy ta'lim talabalarini Krossfit metodi orqali ommaviy sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash texnologiyasi (jismoniy tarbiya va sport fanini o'qitish misolida)" nomli dissertatsiya ishi mavzusi ma'qullansin hamda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) Komilov Nodirbek Bokijonovich nomidan ushbu ishga ilmiy rahbar sifatida tayinlansin.

VI. 4. 1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari B.Polvonovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2. Kompyuter tizimlari kafedrasida katta o'qituvchisi Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'lini, shu kafedra tavsiyasiga ko'ra, dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimida ishlashiga ruxsat berilsin.

4. 3. Axborot texnologiyalari kafedrasida katta o'qituvchisi Mamadaliyev Nurillo Azizilloevich dotsent vazifasini vaqtincha bajaruvchi lavozimida ishlashiga ruxsat berilsin.

4. 4. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida mudiri Obidova Gulmira Kuzibaevna, shu kafedra tavsiyasiga ko'ra, kafedra professori vazifasini bajaruvchi lavozimida ishlashiga ruxsat berilsin.

VI. 5. 1. Direktorning birinchi o'rinbosari B.Tolipovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2. Filial professor-o'qituvchilari va ishchi-xodimlari tomonidan TATU Farg'ona filialining ichki mehnat tartib-qoidalariga, ustav va nizomlarga qat'iy amal qilinishi, aks holda o'rnatilgan tartibda tegishli choralar ko'rilishi belgilansin.

5. 3. Mazkur qaror to'g'risida filial professor-o'qituvchilari va ishchi-xodimlariga yetkazilsin. Mas'ul: barcha rahbar-xodimlar.

Kengash raisi

F. Muxtarov

Kengash kotibi

N. Qurbonov